



# **“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA ILMIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR”**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**2023 yil 19-20 may**

**Buxoro**

**“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to`plami // Buxoro, 2023-yil 19-20-may. – 486 b.**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yilning 19-20 may kunlari Buxoro davlat universitetida **“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar”** mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o‘tkaziladi.

Mazkur konferensiya to‘plamida bir yuz ellikdan ortiq maqolalar jamlangan.

### **Tahrir hay’ati:**

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Rasulov T.H. – Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor;  
Barotov Sh.R. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Karimova V.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov A.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Nishonova Z.T. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Huseynova A.A. – Falsafa fanlari doktori, professor;  
Abdullayeva B.S. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Akramova F.A. Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;  
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;  
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor;  
Usmanova M.N. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Jumayev U.S. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Ostanov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
Rustamov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**Koordinatorlar: Nazarov A.M., Usmanova M.N., Ostanov Sh.Sh.**

*Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.*

© **Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar**

3. Эмоционал соҳа психокоррекцияси: бунда асосан педагоглардаги эмоционал қўзғалувчанлик, араз ва гина, хавотирланиш ҳисси, ўзидан қоникмаслик, ёлғизлик ҳисси, айбдорлик ҳиссини пасайтиришга қаратилган машғулотлардан фойдаландик.

4. Физиологик реакцияларни мувозанатлаштириш: педагоглардаги физиологик реакциялар автотренинг ёки релаксацион машғулотлар орқали барқарорлаштирилди.

Юқорида келтирилган ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда педагогларда касбий стрессни бартараф этиш ва стрессга барқарорликни шакллантириш учун биз экспериментал гуруҳга мансуб педагогларимизда куйидаги хусусиятларни ривожлантирдик: ўз-ўзига адекват баҳо, ўз имкониятларини тўғри баҳолай олиш, аналитик тафаккур, психосоциал саломатлигига нисбатан рефлексив муносабат, шахслараро муносабатларда толерантлик, рационал кун тартибига риоя этиш, эмоционал интеллект, ижтимоий интеллект, конформликка интилиш ҳисси, вазиятга адекват баҳо бериш, ижтимоий перцепция, ўз эмоцияларини бошқариш, копинг хулқ стратегиялари ва бошқалар.

Юқоридагиларга асосланиб куйидаги хулосаларни келтиришимиз мумкин:

1. Классик психокоррекция ва психотерапия усуллари стрессни бартараф этиш ва стресс психопрофилактикасида самарали натижа беради.

2. Касбий стрессни бартараф этиш учун шахсининг когнитив, эмоционал, когнитив соҳасига фаол таъсир ўтказиш лозим.

#### **Адабиётлар.**

1. Селье.Г Стресс без дистресса. Riga: Vieda, 1992.1992.
2. Селье. Г. Стресс без болезней. - Спб, ТОО Лейла, 2003.
3. Тригранян Р.А. Стресс и его значение для организма (отв. ред. навст. предисл. О.Г.Газенко. – М.: Наука, 2000.
4. Маклаков А.Г. – «Общая психология», СПб, 2003.

## **XODIM KASBIY SIFATLARI VA KOMPETENTLIGINING O‘ZI XOSLIGI**

*Maxmudova Z.M.*

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

**Аннотация.** Ushbu maqolada kasbiy sifatlar va kasbiy kompetentlikning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari tahlil qilingan bo‘li, milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati xodimlarining kabiyl faoliyati samaradorligini namoyon etilishida bu jihatlarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

**Калит со‘злар:** kasbiy sifat, kasbiy kompetentlik, kasb, kasbiy shakllanish, ijtimoiy sifat.

O‘zbekistonda milliy gvardiya xodimlarining kasbiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy psixologik muhit joriy etildi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishni ta‘minlovchi moddiy-texnik baza, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.

Nazariy va empirik tadqiqotlar g‘oyalariga tayanib, milliy gvardiya xodimining kasbiy shakllanish yo‘li va yo‘nalishini belgilab beruvchi metodologik g‘oya va qarashlarni ajratib olishga imkon beruvchi mezonlarni belgilab olish maqsadga muvofiq.

«Shakllanish» - falsafiy kategoriya bo‘lib, u bir mavjud holatdan ikkinchisiga o‘tishni ifodalaydi. Barcha mavjud holatlar shakllangan vaziyat sifatida, uning yuzaga kelganligi esa shakllanganligi sifatida qaraladi.

A.V.Makushinning ta‘kidlashicha, kasb bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi [60].



Kasb – jamiyatga zarur bo‘lgan faoliyatning tarixan yuzaga kelgan shakllaridir. Uni bajarish uchun inson bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga mos keluvchi qobiliyat va kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

Keltirilgan ta‘riflarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki kasb mehnat faoliyatining paydo bo‘lgan shakllari, ularni bajarish uchun inson, albatta, ma‘lum bilim va ko‘nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak. Ma‘lumki, kasbiy sifatlarning mutaxassis shaxsida shakllanishi undagi kasbiy shakllanishining rivojlanishiga turtki beradi. Kasbiy shakllanish – muayyan bir sohani takomillashtirishga qaratilgan bilim, ko‘nikmalar majmui. Kasbiy shakllanish – ta‘lim olish jarayonida u yoki bu sohaga doir bilim, ko‘nikmalar majmui. Kasbiy shakllanganlik – ahamiyatga ega kasbiy natijalarga erishish va faoliyatini yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi psixik sifatlari majmuidir.

Kasbiy sifatlari – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko‘nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o‘z qobiliyatini sifatlari va samarali amalga tadbiq etish imkoniyatidir.

Ko‘pgina jahon va xorij olimlarining ta‘kidlashicha, bugungi kunda kasbiy sifatlarning shakllanishi o‘zining ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra inson ehtiyojlari orasida birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Mazkur tuchun cha ijtimoiy nazariy va amaliy muammolari majmuasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogika va psixologiyada markaziy o‘rinni egallaydi. Kasbiy sifatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta‘sirida o‘zgaruvchi alohida turlari tadqiq qilingan.

Ijtimoiy rivojlanish faqat ijtimoiy rollarning o‘zgarishi bilan emas, balki har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga yangi talablarning paydo bo‘lishi bilan ham bog‘liq. Maishiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohadagi yangi muammolar doimo kasbiy mezonlar dinamikasini talab qiladi va bu esa olimlarni kasbiy o‘zini o‘zi anglashga, shaxsning kasbiy shakllanishi muammosini nazariy g‘oyalar bilan boyitishga intilishlarini kuchaytiradi. Tadqiqotlarda kasbiy sifatlari shaxs kasbiy rivojlanishning asosiy mezoni va mehnat sub‘ektining yetakchi xususiyati sifatida talqin etilmoqda. Mutaxassis mehnat sub‘ekti sifatida xodimdan farqli ravishda uning o‘zi faoliyat maqsadini qo‘yadi, unga erishish yo‘li va vositalarini aniqlaydi, faoliyat natijasiga nisbatan mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi. U faoliyatni to‘liq boshqaradi, turli amaliy vaziyatlardan chiqish yo‘llarini biladi, faoliyatni tashkil qilish, uning o‘zgarishi va rivojlanishini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatiga egadir.

Kasbiy shakllanishda kasbiy sifatlari va rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: kasbiy sifatlari bir tomondan kasbiy rivojlanish jarayonida shakllansa, boshqa tomondan esa, shaxsning mutaxassis sifatida namoyon bo‘lishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Amaliy jihatdan bu quyidagilarni anglatadi: yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, raqobatga bardoshlik, farovon kelajakni ta‘minlash uchun mutaxassis doimiy ravishda rivojlanishi, qolaversa, ijtimoiy va mehnat sharoitida o‘zining mavqeini tahlil qilib borishi lozim. Shuning uchun kasbiy sifatlarni tadqiq qilishning zamonaviy yo‘nalishi shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishi jarayoni bilan o‘zaro bog‘liq jihatlarini o‘rganish hisoblanadi.

Kasbiy shakllanish individning mutaxassisga shakllanishi, ya‘ni insonning o‘zi, kasbiy va ijtimoiy muhitdagi mavqei haqidagi tasavvurlarining o‘zgarishi, qolaversa, yangi kasbiy sifatlarni o‘zida qaror toptirishi, keng ma‘noda aytadigan bo‘lsak, shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi bilan hamohanglikda kechadigan jarayondir. Kasbiy shakllanish inqirozlari davrida kasbiy sifatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kasbiy sifatlari muammosiga nisbatan qiziqishlarning ortishiga qaramasdan, bu fenomenning tabiati, tuzilishi, dinamikasi va funksiyalari haqidagi savollar bir qancha chalkashliklarga ega. Bizning fikrimizcha, buning eng asosiy sababi ushbu muammoning, xususan, shaxsning umumiy tuzilishidagi kasbiy sifatlari o‘rnida qo‘llaniluvchi ijtimoiy sifatlarning kam o‘rganilganligi bilan bog‘liq. Kasbiy sifatlari muammosini tadqiq qilish uchun, eng avvalo, bu voqelik shaxs sifatlari tizimida qanday o‘rin egallashini, qolaversa, shaxsning kasbiy va ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashida qanday rol o‘ynashini tuchun ib olish lozim.

Xorij manbalarida kasbiy sifatlar muammosini tadqiq qilishga nisbatan ikkita yoʻnalish koʻrsatib oʻtilgan: birinchisi, kasbiy rivojlanish, shaxsning komil topishiga yoʻnaltirilgan, ikkinchisi esa, kasbiy shakllanishning ijtimoiy tomonlari va omillariga yoʻnaltirilgandir.

Jumladan, M.Argayl kasbiy sifatlar va individning kasbiy shakllanishi orasidagi bogʻliqlik mavjudligi haqida soʻz yuritgan edi. Shu bilan birga, uning oʻzida quyidagilarni mujassamlashtirgan murakkab jarayon ekanligi taʼkidlagan: kasbiy treninglar, faoliyatni amalga oshirishga nisbatan qoʻyiladigan talablar va standartlarni oʻzlashtirish, mehnat jamoasi doirasida xulq-atvor meʼyorlarini tuchun ish. Aynan mehnat jamoasidagi boshqa shaxslar bilan oʻzaro hamkorlik individga oʻzi egallab turgan kasbning aniq standartlarini oʻzlashtirish imkonini beradi. Kasbiy meʼyorlarga amal qilish individga kasbiy sifatlarni oʻzida shakllantirishga va oʻz mavqeini uzoq vaqt saqlab turishga zamin hozirlaydi. Kasbiy sifatlar ushbu yondashuvda uzoq vaqt davom etadigan kasbiy faoliyat bilan bogʻliq kasbiy mavqega yaqin tavsifnoma sifatida izohlanadi.

Kasbiy sifatlar muammosini tadqiq qilishda kasbiy muhit taʼsirida inson oʻzining verbal va noverbal xatti-harakatini qayta qurish vaziyatlari batafsil yoritilgan adabiyotlarga eʼtibor qaratish lozim. Shunday qilib, inson xulq-atvorining faoliyat va mehnat jamoasi talablari bilan muvofiqligini tadqiq qilish Dj.Xollandning tipologik nazariyasi, faoliyatga yaroqlilik nazariyalarida oʻz aksini topdi. Bu yondashuvlar doirasida faoliyat va ijtimoiy muhitning mehnat natijasiga va mehnatdan qoniqqanlikka, individning salomatligi va boshqalarga taʼsirining turli jihatlari oʻrganilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy rivojlanishni tahlil qilishda asosiy eʼtibor qaror qabul qilishga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda asosiy urgʻu insonning kasbiy rivojlanishidagi muammoli vaziyatlarni qabul qilish va ularni bartaraf etish usullarini bilishini tahlil qilishga qaratiladi. Kasbiy oʻzini oʻzi anglash borasida qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi, real imkoniyatlarni aniqlash, imkoniyatlarni qator mezonlar yordamida baholash (omad va omadsizlik tizimini baholash; mashhurlikni yoqtirmaslik, ragʻbatlantirish yoki qanoatlantirish; kasbiy kareradagi oʻsish, ishlab chiqarish faoliyatidagi qiyinchiliklar, taʼlim va ish joyidagi mavqe), adekvat imkoniyatlarni tanlash va amalga oshirish, qarorlarning ijtimoiy dinamika bilan muvofiqligi va boshqalar.

Shaxsiy rivojlanish va kasbiy shakllanish ijtimoiy kontekstining muvofiqligi muammosi kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon olimlarining ishlarida ham oʻz aksini topgan.

L.B.Shneyder asos solgan kasbiy sifatlarni tadqiq qilishning zamonaviy yoʻnalishida ushbu fenomen kasbiy oʻzini oʻzi anglash sifatida koʻrib chiqiladi, bunda shaxs oʻzini muayyan bir kasb va mehnat jamoasining vakili sifatida angelaydi, oʻz “Men”ini kognitiv, emotsional xulq-atvor jihatdan tavsiflashda oʻzini va boshqalardan farqli ekanligini aniqlaydi.

Kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon psixologlari uchun psixik voqeliklarni tuzilmaviyligi va tizimliliigi tamoyili, sifatlarning genetik oʻzaro bogʻliqlik darajasini qidirish, kasbiy faoliyatni oʻzlashtirish va amalga oshirish jarayonida sifatlarning shakllanishini tadqiq qilishga asos boʻlib xizmat qiladi. Bu jahon tadqiqotchilarining anʼanaviy va konseptual metodologik bazasi boʻlib, quyidagilarga xizmat qiladi: kasbiy faoliyatdagi sistemagenenez, shaxsning kasbiy shakllanishi, mehnat faoliyati va boshqalar.

Kasbiy sifatlarning elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, yoʻnalishlar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshiluvchi shaxsning motivatsion sohasining boshqa tarkibiy qismlari koʻrib chiqiladi. Kasbiy sifatlarga erishish uchun shaxs faolligini taʼminlovchi zaruriy bilim va qobiliyatlarga ega boʻlish lozim.

K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan hayot yoʻli tuzilishi (hayotiy pozisiya, hayotiy chiziq, hayot mazmuni)ga asoslangan murakkab kasbiy sifatlar tipologiyasi ishlab chiqildi. Muallif shaxsning kasbiy faoliyatida oʻzini namoyon qilish xususiyatlariga muvofiq quyidagi kasbiy sifatlar tipologiyasini ajratib koʻrsatadi:

- shaxsning o'z xarakteriga maksimal darajada mos bo'lgan kasbni tanlash orqali o'zligini namoyon etadi. Bu holda hayotiy tajribalarda shaxs o'zining imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga sharoit yaratuvchi vaziyatlarni takrorlash bilan bog'liq.

- shaxsga kasbiy mahorat pillapoyalaridan ko'tarilish imkonini beruvchi kasb tanlanadi. Bu holatda kasbiy pozisiyaning sifatli o'zgarishi bilan bir qatorda imkoniyatlarning ortishiga olib keluvchi harakat sodir bo'ladi. Kasbiy yuksalish negizida mehnat faoliyatining talablari va vazifalari, shu bilan bir qatorda shaxs qobiliyatlarining rivojlanishi yotadi.

- shaxs o'z ustida ishlash hamda shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatda o'zligini namoyon qiladi. Kasb potensial holatdagi shaxs qobiliyatlarini faollashtiradi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

- shaxsning o'zligini namoyon qilishi qobiliyatga, o'zini o'zi nazorat qilish va o'zini o'zi tahlil qilishga hamda ijodiy faollikni rejalashtirishga asoslaniladi: bu holatda shaxs kasbiy o'sish va rivojlanishga, qolaversa, shaxsiy qobiliyatlarini amalga oshirish maqsadida mehnat sharoitini qayta qurishga qodir bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy shakllanishni talabada pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, mas'uliyatlilik ijodiy yondashuv va ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonlarning o'zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin.

Umuman kompetentlik tuchunchasi ingliz tilida «competence» so'zidan olingan bo'lib, bevosita «qobiliyat» ma'nosini ifodalaydi. Mazmun jihatdan esa ichki psixologik tashqi jismoniy xatti-harakatlarga kirishish jarayonida nazariy bilimlardan samarali foydalanishni, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon eta olish ma'nosini anglatadi. Kompetentlik deganda shaxsning biror ishni uddasidan chiqishi uchun xizmat qiluvchi xususiyatlari majmuasi tuchuniladi. Bundan tashqari, kompetentlik tuchunchasi bilim, malaka va ko'nikmalardan kengroq tushncha hisoblanadi. Kompetentlik tuchunchasi ta'lim tizimiga psixolog olimlarning ilmiy izlanishlari orqali kirib kelgan. Psixolog olimlarning tadqiqotlarida kompetentlik noan'anaviy vaziyatlarda, kutilmagan jarayonlarda mutaxassis o'zini qanday tutishi, muloqot jarayoniga kirishishi, shaxslararo munosabatlarga kreativ yondashishi, muloqotdagi frustrasion holatlarni yengib o'tish, nizolarni bartaraf etishda rivojlanib boruvchi o'ziga xos rejasiga ega ekanlikni anglatadi.

Ijtimoiy kompetentlik deganda biz shaxsning boshqalar bilan muloqotga kirishi jarayonida faolligi, o'ziga xos madaniyatiga egaligi, mehnat jamoasida muloqotga kirisha olishga aytiladi. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik esa bizningcha, shaxsning mehnat faoliyati davomida pedagogik jarayonni tashkil eta olishi, tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar, ota-onalar jamoasi bilan muloqot qilish ko'nikmasi hisoblanadi. Shu orqali matabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachining ijtimoiy-psixologik kompetentligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

A.A.Dunyushinning fikriga ko'ra, shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. Bu ta'rif, muallif tomonidan quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida qaralishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyatning maqsadi, strukturasi va maxsus talablariga bog'liq;

c) hissiy irodaviy va kommunikativ xususiyatlar, intellekt, shaxslararo munosabatlar, va shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining muloqot kompetentligini ta'sinlash muhimdir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tuchunish lozim.

A.A.Verbitskiy va M.D.Ilyazovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: kompetensiya-shaxs tomonidan faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlovchi

uning ko‘zlagan maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, individual xususiyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimidir; kompetentlik esa, amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy ahloqiy sifatleri rivojlanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerdagi ta’rifdan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: kompetensiya-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish mexanizmi, kompetentlik esa shu jarayonni amalga oshirishda kerak bo‘ladigan axloqiy sifatlar yig‘indisidir.

Binobarin, kasbiy faoliyatning tahlili, pedagogik vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan mutaxassisning bir-biriga aloqador xatti-harakatlarini ajratib ko‘rsatadi. N.V.Samoukina mutaxassis faoliyatini eng ahamiyatli tomonlarini qamrab oladigan tuzilmaning quyidagi beshta asosiy komponentlarini ko‘rsatib o‘tadi: tuzilishi, loyihaviy, yangilikka intiluvchanlik, o‘zaro axborot almashinuv, bilish. Bunda tarbiyachilarining qobiliyati, pedagogik faoliyati, layoqati, individual xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. N.V.Samoukina pedagogik faoliyat tuzilmasini tadqiq etishda tarbiyachi sifatlarining shaxslilik va ijtimoiy-psixologik tomonlarga alohida urg‘u beradi. Shuningdek, har bir tarbiyachining psixologik-pedagogik tayyorgarligi va maxsus tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratadi.

N.V.Samoukina tomonidan ilmiy manbalar tahlili asosida kompetensiyaning ham quyidagi an’anaviy tasniflari qayd etilgan:

– ijtimoiy mas’uliyat, rasional qaror qabul qilish bilan bog‘liq siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;

– shaxslararo munosabatlarda bir-birini tuchun ishga, yordam berishga va o‘zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigan kompetensiyalar;

– kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo‘lgan yozma va og‘zaki muloqotga egaligini ko‘rsatuvchi kompetensiyalar.

M.Kuittinen tadqiqotlarida kompetentlik - bu bilim, ko‘nikma va munosabatlarni anglatuvchi universal tuchun cha sifatida talqin qilinadi.

Tahlil qilingan pedagogik-psixologik, sotsiologik qarashlar ijtimoiy-psixologik kompetentlikning shaxs hayoti hamda kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Milliy gvardiya xodimlari kasbiy faoliyatdagi kompetentlik darajasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish uchun xodim shaxsining ijtimoiy intellektini shakllanganlik darajasi, muloqot madaniyati, shaxslararo munosabatlar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarining psixologik asoslarini tahlil qilmay turib, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlanish haqida fikr yuritib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy-psixologik kompetentlik mezonlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo‘llash masalasi muhimdir. Umuman muammoning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi bo‘yicha quyidagi holatlarda alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

1. Shaxsning, jumladan pedagoglarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi masalasi kasbiy kompetentlik negizida empirik yoritib berilgan.

2. Kompetentlik va uning shaxs faoliyatida namoyon bo‘lish hamda rivojlanish qonuniyatlari individual, ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liqligini asoslangan.

#### **Adabiyotlar.**

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O. O`smirlar ma`naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
8. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O`smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

## ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЯ В ДЕЛОВЫХ КОНТЕКСТАХ: ПРОБЛЕМА ВЫБОРА

*Михеева М.Б.*

Россия

**Аннотация.** В статье сделана попытка проанализировать проблему выбора во взаимосвязи с ценностями в деловых контекстах принятия решения

**Ключевые слова:** проблема выбора, решение, бизнес, эмоции, ценности, карьера, семья, действие

**Annotation.** The article attempts to analyze the problem of choice in relation to values in business decision-making contexts

**Keywords:** The problem of choice, decision, business, emotions, values, career, family, action

Самая типичная распространенная проблема в бизнесе это проблема выбора: вот так действовать или по-другому или еще другим способом. Некоторые люди, которые гордятся силой своего интеллекта, говорят: «Я не могу действовать, пока не докажу, что этот путь самый эффективный». Поэтому они все время доказывают, ищут новые варианты действий и очень гордятся, если находят их.

Ценности – они во внешней территории практически никак не представлены. Более низкие уровни, представлены во внешнем пространстве. Эмоции проявляются во внешнем мире. Стандарты – это стандарты поведения во внешнем мире. Интеллект всегда направлен во внешний мир. Действие – это целиком внешний мир, реализация проекта. А вот ценности не имеют такого предметного аналога во внешнем мире, это внутренние переживания. Например, отношения, семейные отношения. Они ценны для кого-то, и годами строятся какие-то стереотипы коммуникации. Ребенок ценность, бизнес ценность, но не потому что он содержит какие-то материальные ресурсы, объекты недвижимости люди и другое – это не ценности, а бизнес как переживание, то есть бизнес это как некая задача, которая создавалась много лет и теперь начинает приносить плоды.

Ценность всегда связана с проживанием большого участка жизни, это годы. Если говорить цена ошибки на уровне эмоции – пришел человек в ярость, толкает вас, а потом «Извини, я перепутал, больше такого не повторится», все, инцидент исчерпан. То есть эмоции от того, что вас задела плечом или как-то еще задела длится несколько минут, потом вы о них забываете. Стандарты – те проблемы, которые относительно легко разрешимы тоже решаются за часы, позвонить, договориться, проконсультироваться и все – это можно быстро сделать. Принять какое-то решение на уровне интеллекта – вот здесь уже более серьезно, здесь уже не часы не дни, может быть даже недели иногда.



## MUNDARIJA

- 3 **Хамидов Обиджон Хафизович**  
Уважаемые гости и участники!!
- 4 **I-SHO`BA.**  
**ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA METODOLOGIYASI**
- 5 **Bafayev M.M.**  
Etnik tolerantlik zamonaviy shaxs fazilati sifatida
- 8 **Axrorov P.Q.**  
Amerika psixologiya maktabi namoyondalarining zamonaviy tadqiqotlarining o‘ziga xos jihatlari.
- 11 **Botirova M.B., Amonov A.A.**  
Noto‘liq oilalardagi o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonining tashqi va ichki determinatlari.
- 14 **Жураев В.М.**  
Спортчи даъвогарлик даражасининг психологик хусусиятлари.
- 17 **Usmonov Sh.M.**  
Alfred Adler nazariyasida “kamchilik va ustunlik” holati.
- 20 **Xudoyqulova G.B.**  
Rasmiy va norasmiy guruhlardagi psixologik muhitni o‘rganish imkoniyatlari.
- 23 **Абдуллаева Д.У.**  
Онанинг фарзандга муносабатини белгилаб берувчи ижтимоий- психологик омиллар.
- 26 **Abdumadjidova D.R.**  
Psychological training and opportunities for athletes to improve the effectiveness of sports achievements.
- 30 **Абылгазиева А.Д., Дорохова С.В.**  
Уровень развития коммуникативных умений у студентов-психологов как компонент коммуникативной компетентности.
- 35 **Agayeva D., Jabborov A.M.**  
Tarixiy manbalarda oila-nikoh mustahkamligining muhim jihatlari haqida.
- 37 **Varnoyeva Y.R., Elov Z.S.**  
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning ijtimoiy-psixologik sabablari.
- 40 **Волченкова А.А., Зенкова А.В.**  
Особенности толерантности подростков в цифровую эпоху.
- 44 **Григорьев С.Ю.**  
Некоторые интерпретации категории рефлексии в психологии.
- 46 **Деҳқонбоев Ш.О.**  
Ментально-арифметическая характеристика развития интеллекта подростков в современном обществе.
- 49 **Джаббаров Х.Х.**  
Социально-психологические методы воспитания национальных характеристик у молодежи.
- 54 **Ишанкулова Г.**  
Ўзбек оилаларида гендер тенглик ва гендер стереотипларнинг намоён бўлиши.
- 56 **Касимова С.Б.**  
Психологическая защищенность личности от манипулятивных воздействий как функция психологической культуры студентов.
- 60 **Kudratov A.I.**  
Shaxs ehtiyojlarini tadqiq etishning nazariy asosi.
- 62 **Кулиев Ё.К., Рахмонова Н.Е.**  
К некоторым аспектам коррупционных проявлений среди государственных служащих.
- 66 **Рахимова И.И.**  
О сущности понятия социальная активность.
- 69 **Рўзиев У.М.,**  
Ижтимоий вазиятлардан қўрқиш ёки ижтимоий фобия
- 73 **Ro‘ziyeva F.F., Ramazonov J.D.**  
Farzand ruhiy kamolotida SHarq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari, islomiy oilalarda deviantlikni oldini olish yo‘llari.
- 77 **Sa’dullayeva Sh.A.**  
“Qiyin hayotiy vaziyatni boshdan kechirayotgan insonning himoya mexanizmlari va xatti-harakatining psixologik xususiyatlari”.
- 79 **Saidov A.I.**  
Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida.
- 82 **Усманова М.Н.**  
Влияние мотивации на успешность учебной деятельности студентов.

- 85 **Farhodova M.S., Elov Z.S.**  
O'smirlik davri inqirozlarining ijtimoiy-psixologik sabablari.
- 88 **Федорова В.М.**  
Эффекты воздействия на человека традиционными якутскими музыкальными инструментами (хомусом, бубном).
- 92 **Хамитова Ш.М.**  
Значение доверия и его мотивационное влияние на экономические системы.
- 96 **Хохлова Л.П., Токарев С.Г.**  
Феномен инверсии самовосприятия и понимания самих себя лицами с диагностированными психическими расстройствами и расстройствами поведения.
- 101 **Xudayorov U.G'.**  
O'zbekiston psixologlari tomonidan yoshlar muammosining o'rganilish masalalari.

**2-SHO'BA.**

**PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISH**

- Akramova F.A.**  
106 Psixologik xizmat ko'rsatishda oilaviy maslahatning asosiy vazifalari hamda uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar
- 109 **Баратов Ш.Р.**  
Психологическое сопровождение в системе образования Узбекистана.
- 112 **Bilolova Z.B.**  
Psixologik xizmatni olib borishda ishontirish mexanizmining psixologik ta'siri
- 114 **Axmedova Z.J., Ismatova D.T.**  
Motiv va motivatsiya.
- 117 **Ganjiev F.F.**  
Agressiv va autoagressiv o'smirlarni jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik omillari.
- 119 **Olimov L.Y., Jo'rayeva Z.A.**  
Sud-psixologik ekspertizalarning o'ziga xosligi.
- 122 **Kozimova N.A., Ulug'ova Sh.M.**  
Psixologik konsultatsiyaga murojaat qiluvchi shaxslar tipologiyasi.
- 125 **Nusratova M.B.**  
Psixologik konsultatsiyaga muhtoj shaxslar tipologiyasi
- 129 **Maxmudova Z.M., Samadova N.N.**  
Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasidagi korrelyatsiyon bog'lanishlar.
- 132 **Qosimov U.A.**  
Tasavvuf ta'limoti ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 136 **Safarova S.G'.**  
Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 138 **Maxmudova Z.M., Samadova N.N.**  
Qo'riqlash xizmatida psixologik xizmatning o'ziga xosligi.
- 144 **Sattarova G.I.**  
Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish.
- 146 **Бешимова М.О., Усманова М.Н.**  
Адаптация первокурсников к образовательной среде.
- 149 **Гайбуллаев А.А.**  
Социально-психологические механизмы нормализации буллинга поведения у подростков с помощью психокоррекционной работы.
- 153 **Казимова Л.Т.**  
Организация психологической службы
- 156 **Коротаева А.И., Турчина Е.К.**  
Взаимосвязь проявления агрессии и гендерной идентичности младших школьников.
- 157 **Никифоров А.М.**  
Использование метода гештальттерапии в дыхательных процессах
- 161 **Primova Sh. Sh., Sattarova G.I.**  
Oilaviy bolalar uyi sharoitida tarbiyalanuvchilar deprivatsiyasi.
- 164 **Ruziev U.M., Muzaффарова M.Y.**  
Ижтимоий фобиянинг ўзига хос хусусиятлари ва уни олдини олиш.
- 168 **Hakimova F.X.**  
Oila instituti va ijtimoiy-psixologik xizmatlar.
- 170 **Xamdamova M.X., Asanova G.M.**  
Психологическая служба в школе.

- 173 *Эргашева Л.И.*  
Удовлетворенность образовательной средой субъектов педагогического процесса.  
**3-SHO`BA.**
- TIBBIYOT VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASI**
- 176 *Сабирова Д.А.*  
Особенности формирования эгокомпетентности у медицинских работников.
- 180 *Alarova Z.R., Qodirova D.M.*  
Kattalardagi gemotologik kasaliklarni psixilogik tahlili.
- 182 *Axtamova F.G.*  
Tibbiyot psixologiyasidagi tarmoqlarning vujudga kelishi va vazifalari.
- 185 *G'aybulloeva N.X., Olimov L.Y.*  
Oiladagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning bola nutqining rivojlanishiga ta'siri.
- 188 *Izbullayeva S.A., Ganjiyev F.F.*  
Bolalarning nutqiy rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarning ta'siri.
- Shadiyev F.*  
190 Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy - psixologik omillar.
- 193 *Jumaniyozova N.R.*  
Farzandiga autizm tashxisi qo'yilgan oilaning ijtimoiy munosabatlarini o'rganish.
- 195 *Ismoilova Z.I., Elov Z.C.*  
Maktabgacha ёшдаги болаларнинг ақлий ривожланиш моделлари.
- Kazanцева A.B., Enikееva P.Ф., Davыdova Ю.Д., Taxirova Z.P., Mустафин P.H., Яковлева Д.В.,*  
197 *Лобаскова М.М., Малых С.Б., Хуснутдинова Э.К.*  
*Формирование невербального интеллекта как результат взаимодействия средового и генетического компонента.*
- 201 *Камилова М.*  
Оилада юридик тушунчалар шаклланишида шахс асаб тизими типларининг таъсири.
- 205 *Козлов В.В., Власов Н.А.*  
Комплексное посттравматическое стрессовое расстройство: взгляд клинициста.
- 206 *Конаш О.В.*  
Психофизиологические основания категории субъективного времени человека.
- 210 *Лучистая Р.С.*  
Психофизиологические основания категории "субъективного времени" человека.
- 213 *Орзукулова Ч.Р.*  
Рухий саломатлик, рухий саломатликни белгиловчи омиллар ва ўрганилганлиги.
- 216 *Тагильцева Т.А.*  
Научные основы интегративного подхода в семейной психотерапии.
- 218 *Камакина О.Ю., К.А.Турченяк.*  
Специфика коммуникативных навыков младших школьников с нарушением интеллекта.
- 219 *Файзиев З.*  
Шахс психологиясида стрессорларнинг намоён бўлиши ва унинг аломатлари.
- 223 *A'zamova M.A., Hasanova Z.T., Axtatova S.Q.*  
Tug'ruqdan keyingi depressiyaning psixologik sabablari.  
**4-SHO`BA.**
- SHAXS IJTIMOY VA KASBIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**
- 227 *Adizova G.F., Qaxxorova D.S.*  
Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik tomonlari.
- 230 *Eshov E.S., Ashrapov I.I.*  
Din psixologiyasida zamonaviy shaxs shakllanishining amaliy jihatlari.
- Axmedova Z.J.*  
233 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari.
- 235 *Baqoyeva M.Sh., Usmanova M.N.*  
Evolution of school bullying in various social countries and their consequence
- 239 *Barnoyev B.B., Baratov Sh.R.*  
Jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan o'smirlarni o'rganishning psixologik xususiyatlari.
- Berdиеva Г.Ж.*  
242 Социально-психологическая характеристика конфликтных ситуаций между учителем и студентом.
- 246 *Boymurodov N.R., Ostanov Sh.Sh.*

- O'smirlar kreativligi psixologik-pedagogik muammo sifatida.  
248 **Джўракулова, Д.Ф**  
Шахс ижтимоийлашув жараёнида айбдорлик хиссининг тутган ўрни.
- 252 **Ismatova D.T.**  
Oilada ota-ona va farzand munosabatlarining o'ziga xosligi.
- 254 **Kuziyev O.Ch.**  
Shaxs ijtimoiylashuvining psixologik tavsifi va liderlik fenomeni.
- 257 **Saidova M.Z., Maxmudova Z.M.**  
Qo'riqlash xizmati xodimlari kommunikativ kompetentligi.
- 261 **Jo'rayeva Z.A., Maxmudova Z.M.**  
Stressli vaziyatlarda koping xulq-atvor strategiyalari.
- 265 **Mo'minova D.M**  
Norasmiy kriminal guruhlarining o'smir delikvent xulq-atvoriga ta'siri.
- 268 **Muxamedova M.K., Nazarov A.M**  
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda artterapiya orqali tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
- 270 **Nazarova M.M.**  
O'zbekiston ta'lim tashkilotlarida chet ellik talabalarning madaniyatlararo aloqa va ko'p madaniyatli muhitga moslashishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 272 **Abdullayev A.Sh.**  
Pedagog faoliyat samaradorligini ta'minlashga oid sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-psixologik qarashlari.
- 276 **Ostonova L., Nazarov A.M.**  
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuvining psixologik xususiyatlari.
- 279 **Olimov L.Y., Savriddinova G.S.**  
O'smirlarda jinoyat motivlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar.
- 282 **Ulug'ova Sh.M.**  
Tadbirkor ayolarning ikkilamchi kasbiy faoliyatga moslashuv muammolari.
- 284 **Nazarov A.M., Akbarova M.E.**  
O'smirlarda ruhiy barqarorlikni ta'minlashning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
- 287 **Алексеева Ж.Б.**  
«Нейрографика» как метод снижения тревожности и увеличение ресурса жизнестойкости в коррекции психических состояний личности.
- 290 **Ахмадов Н.Р.**  
Нормализация адаптационного процесса через реабилитацию дезадаптированных подростков.
- 295 **Беляева О.А.**  
Школа юного педагога как инструмент амплификации процессов профессионального самоопределения старшеклассников.
- 298 **Жабборов А.М.**  
Копинг хулк – атвор ва унинг намоён бўлиш хусусиятлари.
- 301 **Ismatova F.A., Elov Z.S.**  
Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetentsiyasining shaxsiy komponentining tuzilishini o'rganish.
- 305 **Исматова Д.Т.**  
Социально-психологические особенности коррекции дезадаптивных подростков.
- 308 **Ismatulloev A.N., Ostanov Sh.Sh.**  
Gender features of the locus of control in early youth.
- 310 **Kudratov A.I.**  
Shaxsda ma'naviy ehtiyojlar shakllanishi muammosining mamlakatimiz ilm – fanidagi talqini.
- 313 **Қаршиева Д.С.**  
Педагогларда касбий стресс ва уни бартараф этишининг психологик механизмлари.
- 315 **Maxmudova Z.M.**  
Xodim kasbiy sifatleri va kompetentligining o'zi xosligi.
- 320 **Михеева М.Б.**  
Принятие решения в деловых контекстах: проблема выбора.
- 323 **Тохилович Н.Ж., Усманова М.Н.**  
Социально-психологические механизмы интернет зависимости у студентов.
- 326 **Hakimova F.X., Sayfullaeva Q.A., Hojiyeva N.N.**  
Masofaviy ta'limni shakllantirishda psixologik xizmatning o'rni.
- 330 **Останов Ш.Ш.**  
Психологические особенности развития креативности студентов посредством арттерапии.
- 332 **Пенечко О.К.**



- Направленная визуализация как метод самосохранительного поведения.  
334 **Ramazonova Sh.F.**  
Ota-ona va bola munosabatlarini mustahkamlashning psixologik omillari.  
337 **Ponuev M.Yu.**  
Psixologiyada шахс ижтимоийлашув жараёнлари муаммоси.  
340 **Карпова Е.В., Трубохина В.А.**  
Мотивация учебной и профессиональной деятельности первокурсников.  
342 **Egamberdiyev M.S. Ubaydullayeva N.F.**  
Psixologiyaning arxitekturadagi roli.  
345 **Учаев Н.М.**  
Ведущие компоненты интегративного уровня саморегуляции сотрудников росгвардии.  
347 **Файзиева М.Х.**  
Узбек халқ психологиясида психологик ҳимоя механизмининг ифодаланиши.  
351 **Хасанов Р.А.**  
Особенности взаимосвязи копинг-стратегий с волевыми качествами личности спортсменов.  
355 **Xurramova O.X., Sattarova G.I.**  
O'spirin yoshidagi o'quvchilarning kasbiy kamoloti bosqichlari.  
357 **Южакоев В.А.**  
Показатели качества идентичности личности.  
359 **Asatova Sh.T.**  
Muloqotning shaxslararo munosabatlarda tutgan o'rni.

#### 5-SHO'BA.

#### AMALIYOTCHI PSIXOLOGNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

- 362 **Nazarov A.M.**  
Talabalarda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishning psixologik usullari.  
365 **Oripova M.U., Ostanov Sh.Sh.**  
Talabalarni kreativligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.  
368 **Otaniyozov O.U.**  
O'smirlarda ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.  
370 **Qodirova D.M.**  
Communicative component ability of future psychologists.  
372 **To'rayeva Z., Xudoyqulova G.B.**  
Компьютер o'yinlari va unga tobe o'smirlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari tahlili  
375 **Xaloqova M.V., Ostonov Sh.Sh.**  
Psixologiya yo'nalishi talabalarini matematik tafakkurini rivojlantirishning psixologik asoslari.  
378 **Кадырова Д.М**  
«Социально-психологическая характеристика факторов профессиональной компетентности будущих психологов».  
380 **Kulatova S.Y.**  
O'smirlarda destruktiv axborotlarni yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik omillari.  
383 **Лидская Э.В.**  
Типы коммуникативных взаимодействий старшеклассников в разных ситуациях общения  
385 **Beknazarova L.S.**  
Ta'lim mazmun samaradorligini oshirishda innovatsion interfaol usullarning o'rni.  
387 **Maxmudova Z.M.**  
Qo'riqlash xizmatida psixologik faoliyatning o'ziga xos tomonlari va kasbiy kompetentlik omillari.  
392 **Миронченко Н.В., Дорохова С.В.**  
Особенности восприятия дружбы современной молодежью.  
397 **Наркевич А.В.**  
Особенности использования репрезентативных систем человека в медитативных практиках.  
399 **Рустамов Ш.Ш.**  
Особенности использования математических методов в развитии профессиональной компетенции.  
401 **Торик М.**  
«Пантомима листа» как проективная методика в поле практической психологии.  
403 **Худоёроев А.Н.**  
Социально-психологические условия развития профессиональной рефлексии у практикующих психологов.  
407 **Нафизова Ф.В.**  
Bo'lajak psixologlarning matematik kompetentligini oshirishning psixologik xususiyatlari.

- 409 **Бабарахимова С.Б.**  
Исследование особенностей суицидальных тенденций у подростков.
- 411 **Исаева Г.А.**  
Психологический подход к роману бондарева «горячий снег».
- 417 **Нарзуллоева С. С., Усманова М.Н.**  
Основные признаки рискованного поведения подростков.
- 420 **Саттаров Т.Ф., С.Б. Бабарахимова., К.Р. Файзуллаева., З.Ш. Мирворисова.**  
Эффективность проведения психотерапевтического вмешательства у пациентов с параноидной шизофренией.
- 423 **Olimov L.Y., Bahronova M.O.**  
O'smirlar ma'naviyatini yuksaltirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 427 **Odilova S.K., Nazarov A.M.**  
Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni korreksiya qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
- 429 **Rogozina O.H., Davydova Yu.A., Muxamedjanova A.A.**  
Исследование студентов по методике сан: самочувствие, активность, настроение.
- 433 **Zakirov S.S., Salikhov Sh.M.**  
Psychological mechanisms of emotional intelligence.
- 435 **Темирова Д.Х., Зарипов Г.Т.**  
Роль интеллектуальных имитаций в развитии профессиональных компетенций обучаемых
- 437 **Raximova I.I., Sayitova N.X.**  
Компьютер o'yinlariga tobelik shaxs ruhiyatiga ta'sir jarayonining psixologik ahamiyati
- 441 **Sayitova Umida Hikmatillo qizi,**  
Talabalar internetga tobeligining psixologik profilaktika chora tadbirlari
- 445 **Киличев А.А.**  
Влияние активных методов обучения на развитие личности студентов
- 449 **Усмонова С.М.**  
Ижтимоий психологияда психологик химоя ва шахсий ривожланиш муҳим жараён сифатида
- 452 **Mo'tinov D.M., Davlatov I.Sh.**  
O'smirlar deviant xulqi psixo-profilaktikasida ota-onaning ro'li
- 455 **Muxtorov M.X., Muxtorov Э.М.**  
Беморнинг врачга ишончи - даволаш самарадорлига муҳим омили
- 460 **Yunusova G.S.**  
Onalarning individual va yosh xususiyatlari to'g'risidagi psixologik bilimlarga ega bo'lishlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati
- 464 **Abdukadirova L.Y.**  
Raqamli dunyoda klipli tafakkur va kitobxonlik madaniyati masalasi
- 468 **Abdukadirova L.Y., Qurbonova B.**  
Raqamlashtirish sharoitida o'smirlarning psixologik salomatligini mustahkamlash xususiyatlari
- 472 **Rajabov M.J., Rajabova X.A.**  
Psixologiyada "qora uchlik", ularning xususiyatlari hamda ularga qarshi turishga tavsiyalar
- 475 **Nuriddinov R.S.**  
Bo'lajak pedagoglar ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari
- 477 **Fayzieva U.A.**  
Профессионально-педагогическая компетентность педагога

